



**№3/2024**

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ADPI  
Ilmiy xabarnomasi**

## MUNDARIJA

	<b>PEDAGOGIKA</b>
<b>Yulbarsova X.A.</b> Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi va tavsifi .....	4
<b>Xushnazarova M.N.</b> Bo'lajak o'qituvchilarни ijtimoiy pedagogik amaliyatga tayyorlashda pedagogika fanining samarali usullaridan foydalanish .....	10
<b>Raxmedova M.A.</b> Mahmud az-Zamaxshariyning ma'naviy merosidan yoshlarni axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari .....	13
<b>Ismoilov Y.Q.</b> Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning texnologik masalalari .....	17
<b>Iminova H.M.</b> Ta'lim tizimiga konsentrangan ta'limni integratsiya qilishning zamonaviy pedagogik tendensiyalari .....	20
<b>Muladjanova G.A., Mullajonova M.D.</b> Oliy ta'lim talabalarning sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish kompetentligini takomillashtirish .....	25
<b>Wang Ping.</b> Exploration of ethnic music elements in chinese piano works .....	29
<b>Kadirov A.M., Ergasheva Sh.Q.</b> The role of fine arts in installing the values of human dignity in general education pupils .....	32
<b>Nadirxanova N.A.</b> Enhancing creative competence in students through the steam educational methodology: integrating visual arts and engineering graphics .....	38
<b>Axmedova D.X.</b> Interfaol usulda rag'batlantirishning o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga ijobjiy ta'siri .....	44
<b>O'rinboyev M. I.</b> Fizika o'qitish amaliyotida metakognitiv faoliyatlarni takomillashtirish .....	48
<b>Burxonova M.M., Sirojiddinov B.A.</b> Amaliy mashq va masalalarning kontekstual asoslari hamda umumta'lim mabablarda qo'llanilishi bo'yicha pedagogik-metodik aspektlar .....	51
<b>To'raxonova B.T.</b> Bo'lajak pedagog-psixologlarni tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	54
<b>O'smanova D.Z.</b> Zamonaviy dars jarayonida adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirish .....	57
<b>Xudoberganova M.A.</b> Talabalarga adabiyotni o'qitishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning samarali texnologiyalari .....	61
<b>Iminova D.N.</b> Innovativ loyihalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni .....	65
<b>Abdulmadjidova M.D.</b> Ilk o'spirinlik davrida mehnatga munosabatning shakllanishi .....	68
<b>Dushabayeva G.M.</b> Mustaqil ta'limda chizmachilik fanidan kompyuter dasturlarda foydalanishning ahamiyati .....	71
<b>Utanova V.M.</b> Diskurs tahlili: umumiy ta'rif, metodologiya va misol .....	75
<b>Qoraboyev J.B., Qoraboyeva N.N.</b> Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik ma'no tuzilishi .....	78
<b>Umarov A.V.</b> Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar – talabalarning mediasavodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida .....	81
<b>Qodirova O.S.</b> Maktabgacha ta'lim yoshida bolalarning ta'lim faoliyatiga faol tashabbuskorlik munosabatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	86
<b>Aslonov X.Sh.</b> Dasturlangan labaratoriya ishlariada yarimo'tkazgichlarning ta'qilangan zona kengligi tushunchasi .....	89
<b>Bakirov I.H.</b> Boks sport turida musobaqalarning o'tkazish turlari va musobaqa faoliyati .....	94
<b>Saidg'aniyev S.O.</b> Bolalar uchun sport gimnastikasi .....	98
<b>Tojiboyeva N.T.</b> Ta'lim muhitida o'zini-o'zi boshqarishda qiyin bo'lgan o'smirlarning hissiy qulayligining psixologik jihatları .....	100
<b>Dushabayev D.Sh.</b> Umum ta'lim maktablarda jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish .....	103
<b>Abdullaev G'.A.</b> The method of determination of aerobic and anaerobic threshold by heart rate of athletes in the development of endurance qualities in athletics training (In the case of middle and long distance runners) .....	106
<b>Qurbanova F.M.</b> Talabalarining jamoada ishslash qobilyatlarini kollobratsiya asosida shakllantirishning psixologik xususiyatlari .....	110
<b>Shobduraximova U.T.</b> Tavakkallchilikka asoslangan virtual o'yinlar va ularning jamiyatga salbiy ta'siri .....	113
<b>Hasanova S.K.</b> Development of creative thinking of primary class students based on girls' flows .....	115
<b>No'monova A.N.</b> O'zbekiston ta'lim tizimiga tasviriy san'atning rang tasvir yo'nalishini tadqiq etishning dolzarb masalalari .....	119
<b>Toshtemirov Q.Q.</b> Umumiyo'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida milliy musiqa merosi "shashmaqom" ni o'rganishning ahamiyati .....	122
<b>Gofurjanova N.K.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlaridagi ishtirokining ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni .....	126
<b>IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR</b>	
<b>Yusupova S.N., Bakhronov B.</b> Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muamolari .....	129
<b>Olimova Z.I.</b> Abdulla Avloniyining Turkiston o'lkasidagi jadidchilik harakatiga qo'shgan hissasi .....	132
<b>Mirzayeva B.</b> Maishiy zo'ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati .....	134

qaratadigan bo'lsak, oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagog-psixologlarning metodik kompetentlilagini rivojlanishiga, ya'ni kompetensiyalar tizimini baholashda asosiy e'tiborni kreativlik, ijodiy tafakkurni shakllantirish bilan bog'liq kompetensiyalarga alohida e'tibor qaratilganligi ahamiyatlidir. Bu esa, o'z navbatida bo'lajak pedagog-psixologlarning metodik kompetentlilagini rivojlanish mazmuni, bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentliligiga qo'yiladigan malaka talablarida mazkur jihatlarni alohida e'tiborga olish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, bo'lajak pedagog-psixologlarning metodik kompetentlilagini rivojlanishiga qo'yilayotgan talablar va ta'lim kon'yunkturasi tez o'zgarayotgan sharoitda maktabgacha ta'lim sohasidagi bakalavriat yunalishlari bo'yicha ta'lim dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishi ta'minlanishi zarur.

Tarbiyaviy jarayonni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion faoliyat muhitini amalgalash oshirish mexanizmi va tashkil etishning istiqbolli texnologiyasi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, innovatsion jarayonning muvaffaqiyatlari borishi bo'lajak pedagog-psixologlarning tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga tayyorlash tizimini takomillashtirishga bevosita bog'liq. Bilamizki, ta'lim-tarbiya tizimidagi har qanday yangilik g'oya, fikr, innovatsiya bo'la olmaydi. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak pedagog-psixologlarning tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi bevosita innovatsiya asosida amalga oshiriladi, ya'ni shakl, vosita hamda metodlar yangilanadi, tizimli va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub'ektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yo'nalishlari ochiladi, zamonaviy texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat samaralariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

#### **Foydalaniqan adabiyotlar:**

1. Higson H., Liu K. Business lessons with business: Can arts-based training enhance cultural competency? London: Routledge. (2013).
2. Anuzienė. The Structure of Socio-Cultural Competence (Self) Development. Vocational Training: Research And Realities, 1(26) (2015)
3. Koenen, F. Dochy, I. Berghmans. A phenomenographic analysis of the implementation of competence-based education in higher education. TTE, (2015).
4. Land R., Gordon G. Enhancing Quality in Higher Education – International Perspectives. London & New York: Routledge. (2013).
5. Shavelson R.J. An approach to testing & modeling competence. TasksandChallenges. Rotterdam: SensePublishers. (2013).
6. Reid S., Spencer-Oatey H. Towards the global citizen: Utilising a competency framework to promote intercultural knowledge and skills in higher education students. Cross-cultural teaching and learning for home and international students (2013).
7. Tate D.S. Increasing the retention of American Indian students in professional programs in higher education / D.S.Tate, C.L.Schwartz // Journ. of American Indian Education. – 1993. – Vol. 32. – P. 21 – 31.

UO`K.373.015.31:811.512.133'242

**ZAMONAVIY DARS JARAYONIDA ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYANI  
SHAKLLANTIRISH, ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH**  
<https://zenodo.org/records/13292287>

**O'smanova Diloromxon Ziyodinovna**  
*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayoni hamda ona tili va o'qish savodxonligi darslarining ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish orqali o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar, xususan, adabiy-nutqiy kompetensiyaning shakllanishi va muloqot madaniyatining namoyon bo'lishi, dunyoqarashining rivojlanishi haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiyaviy yondoshuv, nutq, tilning lug'at boyligi, adabiy-nutqiy kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalar, "Davra suhbati" metodi, diagnostik tahlil, tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish.

**Аннотация.** В статье уделяется внимание формированию научно-образовательных компетенций, в частности формированию литературно-речевой компетентности и проявлению культуры общения у учащихся посредством организации учебного процесса и занятий по родному языку и грамотности чтения учащихся младших классов. с использованием передовых педагогических технологий. Рассказывается о развитии мировоззрения.

**Ключевые слова:** компетентностный подход, речь, языковая лексика, литературно-речевая компетентность, педагогические технологии, метод «Круглая дискуссия», диагностический анализ, понимание на слух, устное выражение мысли, чтение, письменное выражение мысли, что нужно сделать.

**Abstract.** The article discusses the formation of scientific and educational competencies, in part to the formation of literary and speech competence and the manifestation of a culture of communication among students through the organization of the educational process and classes on native education and literacy in the young class, using advanced pedagogical technologies.

**Key words:** competency-based approach, language, linguistic vocabulary, literary and linguistic competence, pedagogical technology, "Circular discussion" method, diagnostic analysis, understanding and hearing, oral expression, reading, written expression, what is necessary.

Bugungi kunda ta'lrim sohasidagi asosiy vazifalardan biri mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega o'quvchi shaxsini tarbiyalashdir. Chunki, Vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning nechog'lik tanqidiy va mustaqil fikrlashiga bevosita bog'liqdir.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lrim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari jahoning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lrim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, makkablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil Respublikamiz milliy ta'lrim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lrim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda ko'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etib turishi kerak.

O'quvchilarning fikr doirasi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni ta'lrim jarayoni ob'yeqtidan, bevosita shu jarayonning ishtirokchisi-sub'yeqtiga aylantirish nihoyatda muhimdir. Kompetensiyaviy yondoshuv asosidagi o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni kiritish o'quvchilarga ijodiy va mustaqil fikrlashlariga imkon beradi, ularning bilim olishga qiziqishini oshiradi. O'quvchi shaxsini hurmat qilishga, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishda boshlang'ich ta'lrim shubhasiz mustahkam poydevor rolini o'taydi. Buning natijasida esa O'zbekiston ham rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishga yordan beradi.

Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – sub'ektning maqsadini qo'yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali amalga oshirishg tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan o'quvchining avvaldan belgilangan ta'limi tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar (me'yorlar)dan ham o'zib ketishidir.

Ona tili va o'qish savodxonligi bo'yicha kompetentli shaxs deganda, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxs tushuniladi. Shuning uchun jamiyat ona tili va o'qish savodxonligi ta'limi oldiga o'quvchi shaxsida fikrlash, o'zgalar fikrini anglash va fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, ya'ni mustaqil va ijodiy tafakkurni hamda kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Chunki

yosh avlodni tarbiyalashda o‘z ona tilida aniq, tushunarli, ta’sirchan, chiroyli so‘zlashga o’rgatish masalasi asosiy o‘rinda turadi.

O‘quvchilarni savodli, o‘z fikrini to‘g‘ri va erkin bayon qila oladigan, nutq madaniyatiga ega kishilar qilib tarbiyalash vazifasi dastlab boshlang‘ich ta‘lim bosqichida amalga oshiriladi. Nutqni yaxshi egallagan, o‘z tilining imkoniyatlaridan keragicha foydalana oladigan o‘quvchi, albatta, boshqa o‘quv predmetlarini ham ancha oson va to‘liq o‘zlashtiradi. Boshlang‘ich ta‘limda, asosan, orfoepik va imlo savodxonligini oshirish, so‘z va uning ma’nolari ustida ishslash, nutq sharoitiga mos ravishda so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini shakllantirishga alohida e’tibor beriladi [1]. Darslarda o‘quvchilarning ona tili va o‘qish savodxonligiga nisbatan bo‘lgan muhabbatini oshirish, fanning mazmun-mohiyatini anglash, o‘z yurtining ona tili tarixi, o‘ziga xos tomonini bilish, davlat tili sifatida undan to‘laqonli foydalanish imkoniyatlarini singdira olishlari, til ta‘limiga innovatsiyalarni olib kirishni talab etadi.

Ta‘kidlash joizki, inson hayotida ta‘lim butun umr davom etuvchi va faqat o‘rganish bilan chegaralanmaydigan jarayon hisoblanadi [2]. Inson farzandi dunyoga keliboq, sezgi a’zolari yordamida hayotni bilish, o‘rganishni boshlaydi. Borgan sari uning bilim va tajribasi oshib, tasavvur doirasi kengayib boradi. U tafakkur vositasida ma’lum va noma’lum haqiqatlarni ham idrok etishni o‘rganib oladi. Dars jarayoniga to‘g‘ri tanlangan metod o‘quvchilarning aqliy va amaliy faoliyatining yuqori darajasini yaratishga sharoit yaratadi, mashg‘ulotning ilmiy nazariy darajasini oshiradi.

O‘quvchilarda fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirish uchun ta‘lim texnologiyalarini tanlashda fan o‘qituvchisi o‘rganilishi zarur bo‘lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetentsiyalarni hisobga olgan holda darsni o‘tish metodi va usulini tanlaydi. Masalan, “Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. “Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta‘lim oluvchining bir-biri bilan ko‘z aloqasini o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbating og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatica ta‘lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta‘lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta‘lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar [3].

So‘zlayotgan ta‘lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta‘lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Ushbu metod orqali ta‘lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Ushbu metod o‘quvchilarda adabiy-nutqiy kompetentsiyalarni shakllantirishda hamda kommunikativ kompetentsiya elementlarini rivojlantirishga yordam beradi. Binobarin, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning adabiy-nutqiy kompetentsiyasi (*tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish*) bola shaxsining integrativ sifati bo‘lib, kasbiy faoliyatning ma’lum turini amalga oshirish uchun yetarli bo‘ladigan zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini o‘zida mo‘jassamlashtiradi [4].

Yana shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, diagnostik tahlil natijasiga ko‘ra o‘qish darslari o‘quvchilar fikrini va nutqini o‘stirish, ahloqiy tarbiyani amalga oshirish hamda o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan boshqa o‘quv predmetlari orasida alohida o‘rin tutadi.

O'qish darslari jarayonida o'quvchilarning o'qish malakalari takomillashib, to'g'ri, ongli va ifodali o'qish, badiiy asar g'oyasini tushunish qobiliyatları o'sib boradi.

O'qish darsligidagi turli janrlarga xos bo'lgan badiiy asarlarni o'qish va ular ustida ishslash orqali o'quvchilarning borliq, voqelik haqidagi tasavvur-tushunchalari kengayadi.

Birinchi sinfda o'quvchilar ongli, to'g'ri va bir me'yorda bo'g'inlab o'qish malakasini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlariping talaffuzidagi qiyinchiliklar asta-sekin bartaraf etiladi. O'quvchilar o'qigan matnlarining mazmunini o'qituvchining yordamchi savollari asosida hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib so'zlab berishga o'rGANIB boradilar.

Ikkinci sinf o'quvchilarida so'zni butunicha o'qish malakalari shakllanadi va ongli, to'g'ri, ifodali o'qishga intilish yaqqol seziladi. O'qish tezligi ortadi. Ayrim matnlarni ovoz chiqarmay mustaqil o'qiy boshlaydilar. O'qituvchi rahbarligida o'qilgan matndagi asosiy fikrni aniqlaydilar, undagi ayrim voqeа-xodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. O'qish va matnni savollar asosida hikoyalash paytida o'quvchilar nutqining to'g'ri va aniq bo'lishiga, nutqda so'zlardan o'rini foydalanishlariga e'tibor beriladi.

Uchinchi sinfda o'quvchilar so'zlarni butunicha o'qish malakalarini to'la egallab, ongli va ifodali o'qishga ko'proq e'tibor beradilar.

O'qilgan matn mazmunini mulohaza qilish, voqealar yo'nalishini aniqlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu sinfda ham o'qilgan asarning badiiy-tasviriy xususiyatlari ustida ishslash davom ettiriladi.

Uchinchi sinf o'quvchilariga o'zaro fikr olishuv jarayonida xalq maqollari va obrazli iboralardan o'rini foydalanish, adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilish o'rgatiladi.

To'rtinchi sinfda o'quvchilar matndagi so'zlarni butunicha, ma'nosiga tushunib to'g'ri o'qish malakalarini to'la egallaydilar. O'qiganlari mazmunini qayta hikoyalash, matnni qismlarga bo'lish va sodda reja tuzish vazifalarini mustaqil bajara oladilar.

O'qish va gapirish jarayonida o'quvchilarning adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilishlari talab qilinadi.

O'qish darslarida darsning asosiy qismini o'quvchilarning o'qishiga ajratish lozim. O'quvchilar turli xildagi aniq topshiriqlar asosida bir necha marta o'qitiladi va o'qish mas'uliyatlari orttiriladi. Bunday topshiriqdar dastlab sodda va oson bo'lib, asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Bularga rollarga bo'lib o'qitish, obrazlar orqali ya'ni sahna ko'rinishi orqali ifodalash topshiriqlari berilsa yanada samaraliroq bo'ladi.

Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo'lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo'ladi. Nutq orqali odamzot o'zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi. Chiroyli so'zlashni, savodli, to'g'ri yozishni, o'z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki aytolmagan o'quvchi hech qaysi bilimlarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtira olmaydi [5]. Bu borada so'z va nutqning ma'no-mohiyatini teran idrok etgan buyuk qalam sohiblari so'zlash qobiliyati va go'zal nutq qudrati bemisil bir ne'mat ekanligini takror va takror ta'kidlaganlar.

O'quvchilar nutqini o'stirish, avvalo, ularning lug'atini boyitish bilan bog'liqdir. So'z boyligini oshirishda lug'at ustida ishslash katta amaliy ahamiyatga ega. O'rganilayotgan matn yuzasidan lug'at ishi o'tkazish jarayonida o'quvchilar tilning lug'at tarkibiga xos bo'lgan eskirgan so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlar, kasb-hunarga oid so'zlar, shevaga xos so'zlar, badiiy uslubga xos so'zlar bilan amaliy jihatdan tanishib boradilar [6].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ona tili va o'qish savodxonligi darslarini yuqoridagi ilg'or pedagogik texnalogiyalardan foydalangan holda tashkil etish orqali o'quvchilarda fanga oid kompetensiya, xususan, adabiy-nutqiy kompetensiyaning shakllanishida muhim rol o'yнaydi. Shuningdek, o'z ona tillarini chuqur o'rganishga sharoit yaratadi. Yakunda esa bir qiyosga murojaat qilsak: biz, pedagoglar bir dehqon bo'lsak, farzandlarimiz yer, biz ularga beradigan ta'lif bir urug'dir. Dehqon yerga urug' ekish uchun, avvalo, uni tayyorlaydi, yumshatadi, sug'oradi, o'g'itlaydi, shundan keyingina urug' tashlaydi. Mohir pedagog ham, avvalo, o'quvchilari qalbini o'rgatishi lozim bo'lgan bilimlar uchun tayyorlaydi, unda ilm-fanga muhabbat uyg'otadi va ushbu ishtiyoqni doimo asrab-avaylaydi, uni bevaqt so'nib qolishdan saqlaydi. Ishtiyoq va muhabbat bilan egallangan bilim esa, shubhasiz, kelajakda yaxshi mevalar beradi. Zero, ta'lif mevasi tarbiya daraxtida pishib hosil beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2009. 98-b
2. A.A. Xoliqov "Pedagogik mahorat".T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2011. 54-b
3. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. — T.: "O'qituvchi", 1992. 68-b
4. Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiyl o'rta ta'lif tizimida o'quvchilarning kompetensiylarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalari. - T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2015. 83-b
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli / A. Madvaliev tahriri ostida. – Toshkent: O'zb. mil. ens., 2006-2008.
6. Zaripov K. O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli. - T.: "O'qituvchi", 1993. 47-b.

UO'K:811.512.133

### **TALABALARGA ADABIYOTNI O'QITISHDA IJTIMOIY TARMOQLARDAN**

### **FOYDALANISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI**

<https://zenodo.org/records/13292291>

**Xudoyberganova Mohigul Alisher qizi**  
*Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani 34 – DMTT*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarga adabiyot o'qitish jarayonida ijtimoiy tarmoqlar orqali turli texnologiyalardan foydalanish va ijtimoiy media platformalarining imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi. Hozirgi davrda keng rivojlangan, hamma sohaga kirib borayotgan axborot texnologiyalarini ta'lif sohasiga ham tadbiq etish muhim masalalardan biridir. Ushbu maqola adabiyot ta'lmini boyitish, o'quvchilarga o'quv jarayonining faol ishtirokchisi bo'lish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va adabiy matnlarni chuqurroq qadrlashni rivojlantirishga yordam beradigan maxsus texnologiyalar va strategiyalarni o'rganishda ijtimoiy media imkoniyatlarini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** adabiyot o'qitish, internet, informatsion texnologiyalar, ijtimoiy tarmoq, onlayn platforma, raqamlı qurilmalar, zamonaviy ta'lif.

**Аннотация.** В данной статье говорится об использовании различных технологий посредством социальных сетей в процессе преподавания литературы студентам. Одним из важнейших вопросов является применение в сфере образования информационных технологий, которые широко развиты и проникают во все сферы. Появление мультимедийных и интернет-технологий открыло широкий путь для использования информационных технологий в образовательных учреждениях как эффективного инструмента в процессах образования, обучения и коммуникации. Возрастает роль и влияние информационно-коммуникационных технологий в развитии студентов и молодежи как всесторонне развитой личности, совершенствовании их профессиональных навыков, овладении современными знаниями. Поэтому организация занятий по литературе на основе современных информационных технологий является одним из актуальных вопросов.

**Ключевые слова:** преподавание литературы, Интернет, информационные технологии, социальная сеть, онлайн-платформа, цифровые устройства, современное образование.

